DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каямов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIYAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI.....	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI.....	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	



RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI

Raximov Shaxzod Maxsudjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

<https://orcid.org/0009-0007-5464-402X>

e-mail: shax2025tdiu@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimining g'aznachilik operatsiyalarida qo'llanish imkoniyatlari va uning fiskal boshqaruv samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari e-ID tizimining shaxsni ishonchli autentifikatsiya qilish, vakolatlarni aniq boshqarish, tranzaksiyalarni real vaqt rejimida tasdiqlash va audit izini kuchaytirish orqali davlat moliyasi nazoratini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi. Estoniya, Koreya, Singapur va Daniya tajribalari asosida taqqosiy tahlil shuni isbotladiki, e-ID tizimi joriy etilgan davlatlarda korrupsion xavflar kamaygan, hujjat soxtalashtirish holatlari bartaraf etilgan va fiskal jarayonlar shaffofligi keskin oshgan. O'zbekiston uchun ham e-ID tizimining to'liq integratsiyasi g'azna operatsiyalarining tezkorligi, xavfsizligi va hisobdorligini ta'minlashda muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli identifikatsiya, e-ID, g'aznachilik operatsiyalari, fiskal xavfsizlik, autentifikatsiya, audit izi, raqamli boshqaruv.

Abstract. This article analyzes the prospects of using digital identification (e-ID) systems in treasury operations and examines their impact on public financial management. The findings reveal that e-ID significantly enhances fiscal oversight by ensuring secure authentication, precise authorization control, real-time validation of transactions, and strengthened audit trails. Comparative analysis of Estonia, Korea, Singapore, and Denmark demonstrates that the adoption of e-ID reduces fraud risks, prevents document forgery, and improves transparency across fiscal processes. For Uzbekistan, integrating e-ID into treasury operations is identified as a critical step toward improving efficiency, ensuring accountability, and enhancing the security of government financial transactions.

Key words: digital identification, e-ID, treasury operations, fiscal security, authentication, audit trail, digital governance.

Аннотация. В данной статье научно анализируются возможности использования системы цифровой идентификации (e-ID) в казначейских операциях и её влияние на эффективность фискального управления. Результаты исследования показали, что система e-ID значительно улучшает контроль за государственными финансами, обеспечивая надёжную аутентификацию физических лиц, точное управление полномочиями, подтверждение транзакций в режиме реального времени и укрепление контрольного следа. Сравнительный анализ, основанный на опыте Эстонии, Кореи, Сингапура и Дании, показал, что в странах, где внедрена система e-ID, снизились коррупционные риски, была исключена подделка документов, а прозрачность фискальных процессов значительно возросла. Для Узбекистана полная интеграция системы e-ID также является важным стратегическим фактором обеспечения скорости, безопасности и подотчётности казначейских операций.

Ключевые слова: цифровая идентификация, e-ID, казначейские операции, фискальная безопасность, аутентификация, контрольный след, цифровое управление.

KIRISH

Zamonaviy fiskal boshqaruv tizimida davlat moliyasi ustidan nazorat faqat raqamli texnologiyalar orqali izchil va shaffof amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bosqichga yetdi. G'aznachilik operatsiyalarining murakkablashuvi, byudjet tashkilotlari sonining oshishi, xarajatlar hajmining yil sayin ko'payib borishi davlat moliyasida identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Aynan shu sharoitda raqamli



identifikatsiya (e-ID) tizimi g'aznachilik amaliyotlarining xavfsizligi, aniqligi va tezkorligini ta'minlashda hal qiluvchi texnologiyalardan biriga aylandi. e-ID orqali foydalanuvchilarning shaxsini aniqlash, ularning huquqiy vakolatlarini tasdiqlash, elektron hujjat aylanishini soddalashtirish hamda tranzaksiyalarni himoyalangan tarzda autentifikatsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli identifikatsiya tizimlari davlat moliyasida faqat texnik vosita sifatida emas, balki boshqaruvning institutsional mexanizmi sifatida qaralmoqda. Estoniya, Koreya, Singapur, Daniya kabi mamlakatlarda e-ID g'aznachilik to'lovlari, davlat xaridlari, shartnomalar tasdiqlanishi, davlat xizmatchilari vakolatlarini nazorat qilish va fiskal ma'lumotlarga kirish huquqini boshqarishda asosiy infratuzilmaga aylandi. Xalqaro tajribada e-ID tizimi joriy etilgach, tranzaksiyalar bo'yicha noqonuniy kirishlar 80–95% gacha kamayishi, hujjat aylanishi tezligi 2–3 baravar oshishi hamda davlat xizmatchilarining mas'uliyati kuchayishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [1].

O'zbekistonda so'nggi yillarda elektron hukumat, elektron imzo (E-Imzo), myID va ID.AI kabi identifikatsiya tizimlari jadal rivojlantirilmoqda. Biroq g'aznachilik operatsiyalarida raqamli identifikatsiyaning qo'llanish darajasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, foydalanuvchilar vakolatini aniqlash, to'lov hujjatlarini tasdiqlash, davlat shartnomalarini autentifikatsiya qilish, ichki nazorat darajasini avtomatlashtirish kabi jarayonlarda e-IDdan foydalanish imkoniyatlari kengayishga muhtoj. Ayniqsa, g'azna tizimiga kirish huquqlarini qat'iy boshqarish, byudjet tashkilotlari mas'ullarining har bir tranzaksiya bo'yicha raqamli izini qoldirish, hujjatlarni soxtalashtirish yoki noqonuniy tasdiqlash holatlarining oldini olishda e-ID tizimi strategik rol o'ynaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, g'aznachilik amaliyotlarida raqamli identifikatsiya nafaqat xavfsizlikni kuchaytiradi, balki davlat xarajatlari ustidan real vaqt nazoratini osonlashtiradi, ma'lumotlar oqimini optimallashtiradi va fiskal shaffoflikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, e-ID tizimi davlat xizmatchilari uchun shaxsiy mas'uliyatni kuchaytiradi, natijada davlat moliya intizomi va umumiy fiskal boshqaruv sifati oshadi.

Ushbu tadqiqot g'aznachilik operatsiyalarida e-ID tizimining qo'llanish mexanizmlarini, uning afzalliklari va texnologik imkoniyatlarini, xalqaro tajribani hamda O'zbekiston sharoitida joriy etish istiqbollarini tizimli ilmiy tahlil qilishga qaratilgan.

MAVZUGA OID QDABIYOTLAR SHARHI

G'aznachilik operatsiyalarida raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimining qo'llanilishi davlat moliyasini boshqarishning yangi texnologik paradigmasini shakllantirmoqda. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda e-ID tizimining fiskal jarayonlardagi roli, xususan, shaxsni ishonchli tasdiqlash, vakolatlarni boshqarish, tranzaksiyalar xavfsizligini kuchaytirish va davlat moliyaviy operatsiyalarida audit izini shakllantirish borasidagi salohiyati keng yoritilgan. Masalan, N. Berndt va S. Vassilakopoulou e-ID tizimi davlat to'lov jarayonlarida ishtirokchi subyektlarni aniq autentifikatsiya qilish orqali firibgarlik risklarini 90% gacha kamaytirishini ta'kidlaydi [2]. G. Smedbergning tadqiqotlari esa elektron identifikatsiya tizimlari davlat xizmatlari jarayonlarida huquqiy ishonchlikni oshirib, ma'lumotlar almashinuvi tezligini bir necha baravar oshirishi mumkinligini ko'rsatadi [3].

Shuningdek, Estoniya modeli bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (e-Estonia Audit Framework) e-ID tizimi nafaqat davlat to'lovlari, balki davlat xaridlari, soliqlar, shartnomalar tasdiqlanishi va budjet hisobotlariga kirishda yagona autentifikatsiya mexanizmi sifatida ishlayotgani qayd etiladi [4]. OECD tomonidan 2022 yilda nashr etilgan tahliliy hisobotda esa raqamli identifikatsiya davlat moliyasida samaradorlikni ta'minlash, tranzaksiyalarni himoyalash va moliyaviy jarayonlarda raqamli shaffoflikni oshirishning asosiy strategik texnologiyasi sifatida baholangan [1].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham e-ID tizimining fiskal jarayonlardagi o'rni tobora ko'proq tadqiq etilmoqda. X. Mavlonovning raqamli davlat boshqaruvi bo'yicha izlanishlarida e-ID texnologiyasi davlat xizmatchilarining vakolatlarini nazorat qilish, tranzaksiyalar bo'yicha shaxsiy javobgarlikni kuchaytirish va g'azna tizimida hujjatlarning haqiqiylikni tasdiqlashda muhim ekanini ta'kidlanadi [5]. B. O'rozaliyev raqamli identifikatsiya va elektron imzoning g'aznachilik amaliyotidagi xavfsizlik jihatlari o'rganib, e-ID tizimi orqali hujjat soxtalashtirish ehtimoli minimal darajaga tushirilishini ilmiy asoslaydi [6].

Shuningdek, O'zbekiston Elektron hukumat loyihasi bo'yicha ilmiy izlanishlarda (A. Sodiqov) myID, ID.AI va E-Imzo kabi raqamli identifikatsiya tizimlarining davlat moliya tizimi bilan integratsiya imkoniyatlari yoritilgan bo'lib, bu tizimlar g'azna operatsiyalarida ruxsatlar darajasini boshqarish, tranzaksiya izi (audit trail) ni shakllantirish va ichki nazoratni avtomatlashtirishda keng imkoniyatlar yaratishi ko'rsatilgan [7]. Moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik tomonidan e'lon qilingan uslubiy qo'llanmalarda esa raqamli identifikatsiyaning davlat to'lovlari tasdiqlash, vakolatlarni aniqlash va davlat shartnomalari bilan ishlash jarayonida majburiy texnologiya sifatida joriy etilishi zarurligi qayd etiladi [8].

Umuman olganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlar sharhi e-ID tizimining g'aznachilik operatsiyalarini transformatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Raqamli identifikatsiya fiskal jarayonlarda xavfsizlikni oshiradi, ichki nazoratni kuchaytiradi, har bir operatsiya bo'yicha shaxsiy javobgarlikni ta'minlaydi, audit izini shakllantiradi va davlat xarajatlarning qonuniyligi hamda shaffofligini bir necha baravar oshiradi.



Ushbu ilmiy yondashuvlar O'zbekiston g'aznachilik tizimida e-ID texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish zarurligini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda g'aznachilik operatsiyalarida raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimining qo'llanish istiqbollari mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontent-tahlil metodlari asosida o'rganildi. O'zbekiston g'aznachilik tizimining 2020–2024 yillardagi raqamli jarayonlari bo'yicha statistika, normativ-huquqiy hujjatlar, elektron autentifikatsiya jarayonlari va foydalanuvchi vakolatlarini boshqarish mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek rivojlangan davlatlarning e-ID tajribasi mahalliy sharoitga mos ravishda solishtirilib, g'azna operatsiyalariga e-ID integratsiyasi natijasida yuzaga keladigan afzalliklar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston g'aznachilik tizimida raqamli identifikatsiya (e-ID) texnologiyalarini joriy etish davlat moliyasini boshqarishning sifat va xavfsizlik darajasini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. 2024 yil holatiga ko'ra, DMBAAT, elektron shartnomalar reyestri va raqamli imzo (E-Imzo) tizimi orqali autentifikatsiya jarayonlarining bir qismi raqamlashtirilgan bo'lsa-da, g'aznachilikning barcha operatsiyalarini yagona e-ID platformasi orqali boshqarish hali piloting bosqichida qolmoqda. Foydalanuvchi vakolatlarini aniqlash, shartnomalar tasdiqlanishi, byudjet to'lovlari bo'yicha tranzaksiyalarni tasdiqlash jarayonlari turli tizimlarda bo'lingan holda amalga oshirilayotgani sababli, mavjud nazorat mexanizmlarining samaradorligi yetarli darajada yuqori emas.

Raqamli identifikatsiya tizimini g'aznachilik jarayonlariga chuqur integratsiya qilish quyidagi asosiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi aniqlangan:

- har bir tranzaksiyaning kim tomonidan, qaysi vakolat asosida amalga oshirilganini avtomatik tasdiqlash;
- elektron hujjatlar haqiqiylikni real vaqt rejimida tekshirish;
- g'aznachilikka kirish huquqlarini qat'iy boshqarish;
- audit izi (audit trail)ni kuchaytirish;
- hujjat soxtalashtirish va noqonuniy tasdiqlash operatsiyalarini bartaraf etish;
- korrupsion xavflarni keskin kamaytirish.

Quyidagi jadval O'zbekiston g'aznachilik operatsiyalarida e-ID joriy etilganda yuzaga keladigan kutilayotgan o'zgarishlar bo'yicha umumlashtirilgan tahlilni aks ettiradi.

1-jadval. G'aznachilik operatsiyalarida e-ID joriy etilishining samaradorlik ko'rsatkichlari (2024 yil tahlili asosida)

Ko'rsatkichlar	Hozirgi holat (2024)	e-ID joriy etilgandan keyin kutiladigan natija
Tranzaksiyalarni tasdiqlash usuli	Raqamli imzo + qo'shimcha hujjatlar	To'liq e-ID autentifikatsiyasi
Vakolatlarni boshqarish	Qisman avtomatlashtirilgan	Markazlashgan e-ID vakolat menejmenti
Hujjatning haqiqiylikni tekshirish	Qo'lda yoki yarim avtomatik	Real vaqt autentifikatsiya
Audit izi shakllanishi	Cheklangan	Har bir tranzaksiya bo'yicha to'liq audit izi
Hujjat soxtalashtirish xavfi	O'rtacha darajada	Minimal darajaga tushadi
Noqonuniy tasdiqlash xavfi	Mavjud	To'liq bloklanadi
Operatsion xavfsizlik	O'rta darajada	Juda yuqori
Vakolatdan oshib ketish holatlari	Vaxta-vaxta uchraydi	Avtomatik bloklovchi tizim orqali bartaraf

Manba: Muallif tomonidan O'zbekiston G'aznachilik agentligi va E-Imzo tizimi ma'lumotlari asosida shakllantirilgan, 2024.

Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli identifikatsiya tizimi davlat moliyaviy boshqaruvining barcha bosqichlariga chuqur integratsiya qilingan. Bu davlatda barcha moliyaviy amaliyotlar e-ID orqali autentifikatsiya qilinadi, foydalanuvchilar yagona raqamli identifikatsiya orqali tizimga kiradi va barcha tranzaksiyalar real vaqt rejimida tasdiqlanadi. Natijada noqonuniy operatsiyalar 95 foizga qisqargan, hujjat aylanishi uch baravar tezlashgan va davlat moliyasi bo'yicha audit izi to'liq raqamli shaklda shakllantirilgan. Mazkur tajriba g'aznachilik jarayonlari uchun yuqori darajadagi shaffoflik va xavfsizlikni ta'minlashda e-IDning o'rni qanchalik muhim ekanini isbotlaydi.



Koreya dBrain tizimi ham e-IDning g'aznachilik faoliyatidagi samaradorligini yaqqol namoyish etadi. Ushbu tizimda to'lovlarning barcha bosqichlari elektron identifikatsiya asosida avtomatlashtirilgan bo'lib, foydalanuvchining vakolati qat'iy tekshiriladi va har bir amal shaxsiy autentifikatsiya orqali tasdiqlanadi. Bu yondashuv vakolatdan tashqari harakatlarni deyarli butunlay bartaraf etgan, maxfiy moliyaviy ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish holatlarini nol darajaga tushirgan hamda davlat moliyasini boshqarishda real vaqt monitoringining joriy etilishiga zamin yaratgan. Koreya modeli, ayniqsa, ichki nazorat mexanizmlari va operatsion xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Singapurda SingPass tizimi orqali e-ID davlat moliyasi, soliq boshqaruvi, g'aznachilik, davlat xaridlari va boshqa raqamli xizmatlar bilan to'liq integratsiya qilingan. Bu integratsiya shaxsni aniqlash bilan bog'liq xatolarni 80 foizga kamaytirgan, fribgarlik operatsiyalarini keskin qisqartirgan hamda davlat xizmatchilari va aholi uchun yagona kirish nuqtasi orqali jarayonlarning soddalashuvini ta'minlagan. Singapur tajribasi e-ID tizimi nafaqat xavfsizlikni, balki xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligini ham oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Daniya tajribasi, xususan MitID tizimi, g'azna operatsiyalarini faqat raqamli identifikatsiya orqali tasdiqlash mexanizmi bilan ajralib turadi. Ushbu yondashuv to'lovlar bo'yicha vakolatlarni qat'iy tartibga soladi, tranzaksiyalarning barchasi autentifikatsiyadan o'tishini ta'minlaydi va davlat xizmatchilarining shaxsiy javobgarligini kuchaytiradi. Daniyada e-ID davlat moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning amaliy natijalari fiskal barqarorlik va xavfsizlikning sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi umumlashtirilganda, e-ID tizimi g'aznachilik operatsiyalarining xavfsizligi, shaffofligi, aniqligi va tezkorligini tubdan yaxshilovchi strategik texnologiya ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bunday tizimning to'liq joriy etilishi barcha g'azna operatsiyalarining shaxsiy mas'uliyatini aniq belgilash, hujjatlarning haqiqiyligini avtomatik tekshirish, vakolatlarni markazlashgan tarzda boshqarish va fribgarlik xavflarini minimal darajaga tushirish imkonini beradi. Shuningdek, e-ID audit izining kuchayishi, barcha tranzaksiyalarda to'liq raqamli nazoratning shakllanishi va davlat xarajatlarning qonuniyligi hamda shaffofligini ta'minlash uchun zarur poydevor yaratadi. Natijada bu tizim O'zbekiston davlat moliyasini boshqarishning yangi texnologik bosqichiga o'tishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli identifikatsiya (e-ID) tizimi g'aznachilik operatsiyalarida nafaqat texnik yangilik, balki davlat moliyasini boshqarishning institutsional mexanizmini tubdan o'zgartiruvchi strategik texnologiya hisoblanadi. G'aznachilik operatsiyalarida e-IDning joriy etilishi orqali tranzaksiyalarni kim va qaysi vakolat asosida amalga oshirganini aniq qayd etish, hujjatlarning haqiqiyligini avtomatik tekshirish, kirish huquqlarini qat'iy boshqarish va har bir operatsiya uchun shaxsiy javobgarlikni belgilash imkoniyati yaratiladi. Bu esa davlat xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirib, fribgarlik, hujjat soxtalashtirish yoki vakolatdan oshib ketish kabi xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi. Estoniya, Koreya, Singapur va Daniya tajribalari e-ID tizimi joriy etilganda fiskal boshqaruvning shaffofligi, tezkorligi va xavfsizligi keskin oshishini amaliy jihatdan isbotlab bergan.

O'zbekiston sharoitida e-ID tizimining to'liq va bosqichma-bosqich joriy etilishi g'aznachilik operatsiyalarining raqamlashtirilgan nazorat modelini shakllantirish, audit izini kuchaytirish, davlat xizmatchilari vakolatlarini boshqarishni soddalashtirish va davlat xarajatlarning qonuniyligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, e-ID tizimi mavjud platformalar bilan to'liq integratsiya qilinganda operatsiyalarni tasdiqlash jarayoni bir necha baravar tezlashadi, ma'lumotlar xavfsizligi kuchayadi va inson omili bilan bog'liq xatoliklar minimal darajaga tushadi. Natijada davlat moliyasini boshqarish samaradorligi oshadi, byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi va fiskal barqarorlik mustahkamlanadi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, g'aznachilik operatsiyalarida e-ID tizimini markazlashgan vakolat boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish lozim. Bu foydalanuvchi huquqlarini aniq chegaralash va barcha tranzaksiyalar ustidan shaxsiy javobgarlikni ta'minlaydi. Ikkinchidan, e-IDni DMBAAT, elektron shartnomalar reyestri, soliq ma'lumotlar bazasi va to'lov portallari bilan to'liq integratsiya qilish zarur. Bu integratsiya audit izining to'liq shakllanishini va nazoratning mustahkamlanishini ta'minlaydi. Uchinchidan, real vaqt autentifikatsiya modullarini joriy etish orqali hujjat soxtalashtirish, vakolatdan oshib ketish yoki noqonuniy tasdiqlash holatlarini avtomatik aniqlovchi tizim yaratish lozim.

To'rtinchidan, g'aznachilik xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish, e-ID texnologiyasidan foydalanish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish zarur. Beshinchidan, e-ID tizimining kiberxavfsizlik asoslarini mustahkamlash, xalqaro standartlar asosida cheklanmagan kirish huquqlarini boshqarish va ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha protokollar ishlab chiqish talab etiladi. Oltinchidan, Estoniya yoki Daniya tajribasi asosida eksperimental hududlarda pilot loyihalarni joriy etish orqali tizimning texnik va institutsional samaradorligini amalda baholash maqsadga muvofiqdir.



Umuman olganda, raqamli identifikatsiya tizimini g'aznachilik operatsiyalariga to'liq integratsiya qilish O'zbekiston davlat moliya tizimini yangi texnologik bosqichga olib chiqish uchun muhim shartdir. Bu yondashuv davlat xarajatlarining shaffofligi, nazoratning kuchayishi va fiskal jarayonlarning ishonchligini ta'minlab, mamlakat moliyaviy boshqaruvining raqamli transformatsiyasini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. OECD. Digital Government Review: Strengthening Digital Identity Systems for Public Sector Efficiency. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 124 p.
2. Berndt N., Vassilakopoulou S. Digital Identity for Public Sector Integrity // Government Information Studies. – 2021. – P. 114–129.
3. Smedberg G. Electronic Identification Systems and Public Governance. – Springer, 2020. – 212 p.
4. e-Estonia. National Digital Authentication and Audit Framework. – Tallinn, 2021. – 85 p.
5. Mavlonov X. Raqamli boshqaruvda identifikatsiya tizimlarining roli // Davlat boshqaruvi jurnali. – 2023. – №3. – B. 41–50.
6. O'rozaliyev B. Elektron imzo va e-ID tizimlarining fiskal xavfsizlikdagi ahamiyati. – Toshkent: IT-Moliya nashriyoti, 2022. – 96 b.
7. Sodiqov A. Elektron hukumat va raqamli identifikatsiya tizimlari integratsiyasi. – Toshkent: "Innovatsiya" nashriyoti, 2024. – 104 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi. G'azna operatsiyalarida raqamli identifikatsiya bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent, 2024. – 48 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>